BARKAMOL SHAXSNI TARBIYALASHDA MILLIY G‘OYANING VAZIFASI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Abdullayeva Nargiza Isaqovna
Andijon viloyat Baliqchi tuman 2-son kasb hunar maktabi YOBIBDO‘

Annotatsiya: Jamiyat doim bir-biriga qarama qarshi bo‘lgan kuchlar ta’sirida tarqqiy etadi. Biz ushbu maqolada aynan barkamol shaxsni tarbiya qilishdagi muammolar va uni yechimini yechishga qaratilgan “milliy g‘oya”ning jamiyat tar’lim-tarbiyasidagi vazifalarini tahlil qilib berdik.
Kalit so‘zlar: Ziddiyat, mafkura, bunyodkor g‘oya, barkamol avlod, komil inson, millatlararo totuvlik.
Аннотация:Общество всегда развивается под влиянием противоположных сил. В данной статье мы проанализировали задачи «национальной идеи» в воспитании общества, направленные на решение задач воспитания всесторонне развитой личности.
Ключевые слова: Конфликт, идеология, творческая идея, совершенное поколение, совершенный человек, межнациональная гармония
Annotation: Society always develops under the influence of opposing forces. In this article, we analyzed the tasks of the "national idea" in the education of society, aimed at solving the problems of educating a comprehensively developed personality.
Key words: Conflict, ideology, creative idea, perfect generation, perfect person, international harmony.

Hozirgi globallashyotgan kunda yoshlar shunday ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar kuchaygan, mafkuraviy qarashlar keskinlashgan, o‘z mohiyatini o‘zgartirib, turli niqoblarga burkangan davrda yashamoqda. O‘zbekiston suverenitetiga qarshi tahdidlar o‘zining serqirra, murakkab, maqsad va yo‘nalishlarini tez o‘zgartirayotgan, yoshlar ongi va tafakkurini o‘zgartirishga, buzishga qaratilgandir.

Jamiyat a’zolarida yuksak ma’naviyatni qaror toptirish uchun muayyan ma’naviyat negizidagi dunyoqarashga e’tiqod qo‘ygan, milliy g‘oya uchun kurashishni hayot ma’nosi deb bilgan, maxsus tayyorgarlikka ega, notiqlik san’ati mahoratiga ega bo‘lgan targ‘ibotchilar, moddiy resurslar bilan yetarli darajada ta’minlangan ta’sirli mafkura kerak bo‘ladi.

Inson hamisha hayotiy faoliyati, jamiyat, davlat, ijtimoiy munosabatlarda albatta muayyan milliy g‘oyaga ehtiyoj sezadi hamda o‘z ehtiyojlarini qondira oladigan fikrlarni qabul qiladi. Ushbu fikrlar esa, jamiyatda qaror topgan ma’naviy, badiiy, estetik va boshqa me’yorlar bilan hamohang bo‘ladi. Shuning uchun ham milliy g‘oya va mafkuraga ta’rif berilganda ularning bosh maqsadi jamiyat va insonning axloqiy-ma’naviy ehtiyojlarini qondirishdan iborat ekanligi nazarda tutiladi.

O‘zbek xalqining ezgu orzu-intilishlari va umid-maqsadlariga xizmat qiladigan har qanday bunyodkor g‘oyani milliy mafkuramiz tarkibiga kiritishimiz mumkin. Chunki milliy g‘oyadan maqsad ana shu orzu-intilish va umid-maqsadlarga ezgulik yo‘li bilan, o‘zgalarga va o‘zimizga zarar keltirmagan holda yetishishdan iborat. Zero, milliy g‘oya – muayyan millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtiradi. Unda millatning tub manfaatlari va maqsadlari o‘z ifodasini topadi. O‘zbek millatining taraqqiyotiga, ravnaq topishiga, tinchligi va farovonligiga xizmat qiladigan g‘oya milliy mafkuraning bosh g‘oyasi hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati shakllanishida ma’naviyatning yuksalishi bevosita milliy g‘oya va mafkura bilan bog‘liq. Milliy mafkura asosiy g‘oyasining mag‘zini tushunib yetib, unga amal qilgan inson ma’naviyatning bitta pog‘onasiga qadam qo‘yadi. Shuningdek, milliy mafkuramiz hamjihatlikni talab qiladi.

https://wordlyknowledge.uz

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g‘oyasi–ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish. Asosiy g‘oyalari esa vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik tamoyillaridan tashkil topgan.

Barkamol avlod tarbiyasida milliy mafkuraning tamoyillaridan samarali foydalanilsa, ularni amalga oshirishga erishilsa, O‘zbekistonning taraqqiyoti uchun muhim rol o‘ynaydi.

Yoshlar ongiga Vatan ravnaqi g‘oyasini singdirish, uni amalga oshirish bevosita jamiyatni ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy rivojlanishi bilan bog‘liq. Bunda bugungi kunda ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, jamiyatni boshqarishda jamoat tashkilotlarining mavqeini oshirish muhim. Falsafiy madaniy merosimizning tiklanishi, aholi intellektual salohiyatini oshirish, fan va ilmiy muassasalar, san’at va adabiyotni rivojlantirish, barkamol insonni tarbiyalash bo‘yicha milliy dasturning qabul qilinib, amalga oshirilishi Vatan ravnaqi tuyg‘usining shakllanishiga xizmat qiladi.

“Yurt tinchligi deb, har bir insonning o‘zi tug‘ilib o‘sgan joyida, yashayotgan yurtida o‘zi va o‘zgalarning haq-huquqlarini hurmat qilgan holda, ichki va tashqi kelishmovchiliklarni o‘zaro hamjihatlik, muzokara yo‘llari bilan yechib, har xil yomonliklar bilan bezovta qilmaydigan betashvish, urush-janjallarsiz osoyishta yashashlari uchun to‘s-to‘polonlardan, o‘zaro ziddiyatli to‘qnashuvlardan, katta-kichik urushlardan xoli bo‘lgan sharoitning mavjudligiga aytiladi”.

Milliy g‘oyaning muhim qismini xalq farovonligi g‘oyasi tashkil etadi. Ma’lumki, faylasuflar azaldan tenglik, adolat, erk, ozodlik, farovonlik qaror topgan ideal jamiyatni orzu qilganlar va bunday jamiyatga erishishning yo‘llari haqidagi turli ilmiy qarashlarni ilgari surganlar. Ta’kidlash lozimki, xalqi farovon bo‘lgan yurt odamlarining turmushi obod bo‘ladi.

Mamlakatimizda yashayotgan har bir inson oilasining, millatining farovon yashashi, serfayz turmush kechirish uchun tadbirkorlik, tashabbuskorlik bilan xizmat qilib, xalq farovonligiga hissasini qo‘shadi. O‘zbekistonda xalq farovonligini ta’minlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar aynan inson kelajagi uchun xizmat qilishi lozimligi ta’kidlanmoqda. Barkamol inson tarbiyasida yoshlarni farovon turmush asosi – erkinlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlik, innovatsion g‘oyalarni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish, mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, tafakkuri va dunyoqarashida mehnatga ishtiyoq, mulkka egalik hissini kuchaytirish lozim.

Millatlararo totuvlik g‘oyasi –umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Jahondagi davlatlar aholisi milliy tarkibiga ko‘ra 2 guruhga bo‘linadi. Birinchisi monoetnik (aholisi asosan bir millat vakillaridan iborat) va ikkinchisi polietnik (ko‘pmillatli) davlatlardir. U davlat etnik siyosatining asosi hisoblanadi. O‘zbekistonda hozirgi kunda 134 ta millat, elat va xalq vakillari yashaydi. O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillari yagona maqsad yo‘lida birlashib, bir-birlarining tili, diniy e’tiqodi, urf-odatlari, an’ana va milliy qadriyatlarini hurmat qilib yashab kelmoqdalar.

Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, milliy, tarix, madaniyat, milliy an’ana va urf-odatlarni asrab-avaylash, millatchilik, diniy ekstremizm, terrorizm kabi aqidalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish kerak. Shundagina mamlakatda millatlararo va konfessiyalararo totuvlik, tinchlik barqarorlik ta’minlanadi. “O‘zbekiston – umumiy uyimiz” tamoyili amalga oshadi.

O‘zbekistonda tug‘ilib, unib-o‘sib kelayotgan har bir fuqaro, jumladan, yosh avlod ongiga bu g‘oyalar asosida yotgan ezgu maqsadlarni singdirib borsak, ularga zamonaviy bilimlar berib, yuksak ma’naviyat urug‘ini qalb qo‘riga tikib qo‘ysak, ertaga uni turli

https://wordlyknowledge.uz

ma’naviy tahdidlardan asraymiz. Chunki yosh avlodning o‘zi ijtimoiy turmushdagi ijobiy va salbiy holatlarni, islohotlarni anglab yetadi. Zero, mustaqil fikr va qat’iy e’tiqodga ega bo‘lib, faol ishtirokchisiga aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tariximizning boyligi, bugungi kunda yoshlarga yaratib berilayotgan sharoitlarni izohlab shunday deydi: “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, Xudo xoxlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham bo‘ladi”.

Olimlarning fikricha, inson uchta buyuk qudratdan – tana, ruhiyat va ma’naviyatning yig‘indisidan tashkil topgan biosotsial jonzotdir. Komil inson – dunyoviy va diniy bilimlarni puxta egallagan; jismonan hamda ruhan sog‘lom; biron-bir voqea-hodisa yoki jarayon haqida mantiqan to‘g‘ri xulosa chiqarib, mustaqil fikr yurita oladigan, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni egallagan shaxs.

Komil inson g‘oyasi barkamollikdagi eng asosiy va zaruriy shartlardan biri ekan, unga xos bo‘lgan xususiyatlarni shakllantirish bugungi kundagi dolzarb mavzudir. Yoshlarga bu borada qanday tarbiya berish lozim?

Birinchidan, ularni dunyoviy va diniy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berish. Chunki dunyoviy bilimlarni puxta egallamagan shaxs fan va texnologiyani tushunmaydi. Bu esa hozirgi axborotlashgan jamiyat uchun xavfli. Diniy bilimlarni egallamagan shaxslar esa dinni tushunmasligi oqibatida turli xil yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolib, boshqa yo‘llarga (diniy ekstremizm, terrorizm) kirib ketishi mumkin.

Ikkinchidan, yoshlarni ongli, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy-iqtisodiy voqealar rivojidan to‘g‘ri xulosa chiqara oladigan, ma’naviy-ruhiy sifatlarni tarbiyalash.

Uchinchidan, yoshlarda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat va hurmat tuyg‘usini yuksaltirish.

Xulosa qilganda barkamol shaxs tarbiyasida ijtimoiy hamkorlik muhim o‘rin egallaydi. Yoshlarda turli millat, irq va din vakillariga nisbatan hurmat tuyg‘usini yuksaltirish, mustaqillikni mustahkamlashda o‘zini mas’ul deb bilishi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish kabi sifatlarni shakllantirish lozim.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – 192 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 482 b.

https://wordlyknowledge.uz